

# O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA ADVOKATNING ODIL SUDLOV VA BOSHQA FAOLIYATDAGI ISHTIROKINING KAFOLATLARI.

**Aliyeva Farangiz Rashidjon qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola advokatura institutining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan advokatning odil sudlovni amalga oshirishdagi ishtiroki, uning amaliy va nazariy asoslariga bag'ishlanadi. Advokatura sohasiga oid milliy qonunchilik va chet el tajribasini taqqoslash orqali advokatlik kasbining sudlov jarayonidagi faoliyatining ijobiy taraflari hamda mavjud kamchiliklarni tahlil qilish orqali ushbu sohaga oid masalalar yoritiladi. Shuningdek, advokatura faoliyatining sudlovdagi o'rni xorijiy tajribalar asosida muallif tomonidan batafsil tahlil etilgan, tadqiqot natijalari qonunchilikka beriladigan takliflar ko'rinishida bayon etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Advokatura, advokatlik, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, ma'muriy sudlar, pro bono, stajirovka, malak imtihoni.*

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida, "Jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish maqsadida advokat: **fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy** ishlari hamda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshiradi" deya belgilab qo'yilgan.

Dastlab bu boradagi Respublikamizdagi eng so'nggi islohotlarga nazar tashlaymiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni<sup>1</sup> bilan tasdiqlangan "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida "Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuvlik tamoyillarini ro'yobga chiqarish, ya'ni protsessual qonunchilikda advokatning vakolatlarini, shu jumladan dalillarni to'plash va taqdim etish vakolatlarini kengaytirish, advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish, davlat hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bepul yuridik yordamni jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham ko'rsatish tizimini joriy etish, advokatura faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunni ishlab chiqish, advokatning protsessual maqomini kuchaytirish kabi maqsad va vazifalarni belgilanishi advokatura sohasidagi islohotlarni yangi bosqichini boshlab beradi.

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Darhaqiqat ushbu davlat dasturida advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlikka chek qo'yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo'lga qo'yish, ya'ni oliy yoki hududiy malaka komissiyasi qarori asosida advokatlik litsenziyasini "Litsenziya" axborot tizimi orqali rasmiylashtirish tartibini joriy etish, advokatlar, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o'rtasida hujjatlar almashinuvini ta'minlovchi **"Yuridik yordam" elektron tizimini** yaratish, advokatning protsessda ishtirokini ta'minlashni soddalashtiruvchi **"Elektron advokat orderi"**ni joriy etish kabi maqsad va vazifalarni amalga oshirilishi o'z navbatida fuqarolar va tashkilotlarning malakali yuridik yordam olish hamda sud jarayonida buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini professional advokatlar yordamida himoya qilinishiga va advokatlarni sudda ishtirok etish asoslarini soddalashuviga olib keladi.

### **Fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokat ishtiroki.**

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 9<sup>1</sup>-moddasiga ko'ra, yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnoma) ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan advokat o'rtasida ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) o'ziga yoki u tayinlagan shaxsga yuridik yordam ko'rsatish uchun oddiy yozma shaklda tuziladigan fuqarolik huquqiy shartnomadan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasiga ko'ra, asosan ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi. **O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi 5-sonli qarori 12-bandiga**<sup>2</sup> ko'ra, advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi kifoya bo'lib, u advokatga yuridik yordam so'rab murojaat etgan shaxs manfaatlarini sudda himoya qilish huquqini (FPK 69-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqlardan tashqari) beradi.

**Angliyada** advokat sifatida **barristerlar va solisitorlar** faoliyat yuritadi. **Barristerlar** elita hisoblanadi va sudlarda ishlaydi, **solisitorlar** esa mijozlar bilan shug'ullanadilar va sudgacha bo'lgan bosqichlarda hujjatlarni to'playdilar. 1990-yildan boshlab ularning funksiyalaridagi qat'iy chegara yo'qola boshladi. Bundan tashqari, himoyachilarning yangi toifasi - sudlarda so'z yuritish huquqiga ega bo'lgan advokatlar paydo bo'ldi.

Barrister sudda ishtirok etadi, to'g'ridan-to'g'ri nutq so'zlaydi, solisitor esa barristerning sudda nutq so'zlashi uchun barcha zarur materiallarni tayyorlaydi. Solisitor analizlar o'tkazadi, tahlil qiladi, so'rovlar yuboradi, ma'lumot va dalillarni

---

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-2414102>

to'playdi, lekin sudda ishtirok etish huquqiga ega emas. Qizig'i shundaki, prokuror ham sudda so'zga chiqish (sudya bilan gaplashish) huquqiga ega emas: sudda uning nomidan sudda **prokurorning barristeri** so'zga chiqadi.

Shu bilan birga, barrister sudda ayblov tomonida qatnashishdan bosh tortishi mumkin emas. Prokuratura uchun barristerning maslahati qaror qabul qilishda ma'lum bir filtrdir. Buyuk Britaniyadagi barristerlar (advokatlar) ayblovga qarshi emas, aksincha, prokuraturaning eng yaxshi mutaxassislari (ekspertlar) sifatida ham qaraladi. Ularning yordami bilan sud obyektiv qaror (hukm) chiqaradi. Chunki ular yetarli darajada malakaga, yuqori professionallikka, mustaqil fikrga, sudlar oldida obro'ga ega.

Barrister bo'lgan shaxs barcha (shu jumladan yuqori) sudlarda so'zlash huquqiga ega bo'ladi. Odatda Barristerlar ishlarni faqat solisitorlar orqali ko'radi, jinoiy ishlar bundan mustasno. Barristerlar uchun eng yuqori professional e'tirof - bu **Qirollik advokati unvoni**. Shunisi e'tiborga loyiqlik, aksariyat G'arb mamlakatlaridagi advokatlarning fikriga ko'ra, Barristerlar o'z sohasidagi mutaxassislarning jahon elitasi hisoblanadi. Ularning tajribasidan chet ellik yuristlar va boshqa mutaxassislari, hukumatlar, kompaniyalar va butun dunyo bo'ylab xususiy mijozlar foydalanadi. Ular dunyoning istalgan nuqtasida paydo bo'ladigan ingliz huquqi yoki Yevropa Ittifoqi huquqining har qanday masalalarida vakolatli. Solisitorlar - yuqori darajadagi Barristerlar uchun materiallar tayyorlashga ixtisoslashgan advokatlar toifasi. Solisitorlar, shuningdek, muassasa, korxonalar, tashkilotlar, aksiyadorlik jamiyatlarida **yuridik maslahatchi** vazifasini ham bajaradi.

Dunyoning aksariyat davlatlaridan farqli o'laroq, Angliyada **oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar ham, yuridik ma'lumotga ega bo'lmaganlar ham** advokat bo'lish huquqiga ega. Biroq, huquqshunos bo'lmagan bitiruvchilar bir yillik intensiv yuridik kursda "core subjects" (*korporativ huquq, delikt huquqi, jinoyat huquqi, munitsipal huquq, davlat va ma'muriy huquq, mulk huquqi, trust huquqi*)dan ta'lim olishi kerak. Ushbu kurs orqali ular «Common Professional Exam (CPE)»ga tayyorgarlik ko'rishadi.

Britaniyalik solisitorni tayyorlash odatda bir necha bosqichdan iborat: universitetda uch yillik o'qish, so'ngra tajribali solisitor huzurida 12 oylik yuridik amaliyot kursi (Legal Practise Course), yakuniy imtihon (Solicitor Final Exam)dan o'tish hamda har yili yangilanishi kerak bo'lgan "amaliyot sertifikatini" olish. Amaliy mashg'ulotlar bosqichida bo'lajak solisitorlar birinchi navbatda tashkiliy boshqaruv, muzokaralar san'ati, shartnoma huquqi va boshqa amaliy fanlarni o'rganadilar.

Ana shundan keyin ular barristerlarning sudda nutq so'zlashi uchun barcha zarur materiallarni tayyorlash, analizlar o'tkazish, tahlil qilish, so'rovlar yuborish, ma'lumot va dalillarni to'plash vakolatiga ega shaxs sifatida shakllanadi.

Shartnoma bo'yicha vakillik qilish masalasiga qaytadigan bo'lsak, uning nazariy va amaliy muammolari sifatida quyidagilarni aytish joiz:

**Birinchi**dan, sud protsessida tortishuvchanlik tamoyili va taraflarning teng huquqligi prinsipini amalda ta'minlashda advokatlarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada huquqshunos olim D.Xabibullayev ham o'z ilmiy ishlarida shunday yozadi: hozirgi kunda nizoli masalalarni hal qilish bo'yicha sudga murojaat qilayotgan fuqarolarning barchasida ham huquqiy ong yuksak darajada emas. Shuning uchun, tortishuvchanlik tamoyilini hayotga to'laqonli kiritish uchun sud protsessiga malakali mutaxassislarni, ya'ni advokatlarni jalb qilish lozim. Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasiga asosan, advokatlarning shartnomaviy (ixtiyoriy) vakil sifatida ishtirok etadilar. Lekin, protsessning barcha ishtirokchilari ham advokat orqali ishda ishtirok eta olmaydilar, chunki advokat xizmati pullikdir<sup>3</sup>. Ushbu masala bo'yicha **Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining** 4-bobi, 78-paragrafida<sup>4</sup> protsessda advokat tarafning vakili sifatida majburiy ishtirok etishi belgilangan. Unga ko'ra, landgerixtax va boshqa yuqori turuvchi instansiya sudlarida taraflar advokat orqali ishtirok etadi, sudda faoliyat olib borish, ishni yuritish va taraflarni tanishtirish vakolati advokat orqali amalga oshiriladi. Oilaviy ishlarda taraflar va ishda ishtirok shaxslar sudda ishda ishtirok eta oladigan advokatlarning orqali tanishtiriladi.

Fuqarolik protsessida vakillik faoliyati orqali ish yuritishga ehtiyoj borligining bir qancha sabablari mavjud. Shulardan ba'zilari:

- *ishonch bildiruvchi shaxsning protsessual haraktlarni amalga oshirishda qonun normalarini bilmaligi, yetarlicha bilmaligi yoki bilsa ham ishonchli himoyaga muxtojligi;*
- *professional faoliyat bilan shug'ullana olmasligi;*
- *muomalaga layoqatsizlik yoki muomala layoqatining cheklanganligi (bunday hollarda shaxsning nomidan qonuniy vakil yoki qonuniy vakil tomonidan tayinlangan shartnomaviy vakil ham faoliyat yuritadi);*
- *sud protsessiga qatnashish imkonining mavjud emasligi (xorijiy davlatga ishlashga, xizmat safariga yoki ta'tilga chiqish);*
- *vaqtinchalik sanatoriya yoxud davolanish muassasida bo'lishi va shu kabi kundalik turmushda uchrab turadigan holatlar.*

Sog'lom fikr nuqtai nazaridan ham ushbu yuqorida sanab o'tilgan va shu kabi boshqa holatlarda ishonch bildiruvchi shaxsning nomidan vakilning faoliyat yuritishi **protsess muddatining qisqarishiga, sud ish yurituvining ham osonlashuviga, ishonch bildiruvchi shaxsning manfaatlariga putur yetkazilmasligiga hamda ishonchli himoya funksiyasining amalga oshirilishiga** zamin yaratadi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, vakillik faoliyati orqali bugungi kunda ish yuritishning ko'lami kengayishi bilan bir qatorda Jamiyat va innovatsiyalar – qonunchilik normalari ham o'zgartirishlarni talab qilib

---

<sup>3</sup> **Idiboev Abror Jamolovich. SOME ISSUES OF IMPROVING THE GROUNDS AND PROCEDURE FOR THE PARTICIPATION OF A LAWYER IN CIVIL PROCEEDINGS. Journal of Law Research. 2022, Special issue 1, pp.51-59**

<sup>4</sup> <https://dejure.org/gesetze/ZPO>

qolmoqda. Ma'lumki, yangi normalarni joriy etishda eng samarali yo'l bu – rivojlangan xorij mamlakatlarining yutuq va kamchiliklarini o'rganish va ularning implementatsiya qilishda qonunchiligimizga to'g'ri keladigan jihatlarnigina qabul qilishdir<sup>5</sup>.

Xorijiy davlatlar fuqarolik protsessida vakillik faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak o'ziga xoslikni kuzatishimiz mumkin. Masalan, **Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining** 50-moddasida<sup>6</sup> "Sud advokatni yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarning vakili bo'lmagan taqdirda, shuningdek federal qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda vakil qilib tayinlaydi. Sud tomonidan javobgarning vakili etib tayinlangan advokat ushbu ish bo'yicha sud qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega" deya belgilab qo'yilgan.

Xuddi shunday normani Belorusiya Respublikasining qonunchiligida ham ko'rishimiz mumkin. **Belorusiya Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining** 77-moddasida sud tomonidan vakil tayinlanadigan holatlar nazarda tutilgan.

"Sud quyidagi hollarda taraf yoki uchinchi shaxsga vakil tayinlaydi:

- 1) muomalaga layoqatsiz shaxs yoki uchinchi shaxs vakilining yo'qligi;
- 2) yashash joyi (joylashgan joyi) noma'lum bo'lgan javobgar vakilining yo'qligi;
- 3) vakil Belarussiya Respublikasining nikoh va oila kodeksida belgilangan asoslar bo'yicha sud ishini yuritish huquqiga ega bo'lmasligi;
- 4) qonunda belgilangan boshqa hollar.

Ushbu moddaning 1 va 3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda vasiylik va homiylik organi tomonidan vakil tayinlanishi, ushbu moddaning 2-bandida ko'rsatilgan holatda esa ularning roziligi bilan qarindoshlari va boshqa fuqarolar tayinlanishi mumkin".

**Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining** 58-moddasida "taraf, qonuniy vakillar ishni yuritish uchun bir yoki ikki vakilni ish yuritishga tayinlashi mumkin. Advokatlar, yaqin qarindoshlar, taraflarning yashash joyidagi tegishli jamoat tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan shaxslar, shuningdek, xalq sudi tomonidan tavsiya qilingan boshqa fuqarolar sudda vakil bo'lishi mumkin". Ushbu kodeksning 60-moddasida "Agar vakilning vakolatlari o'zgartirilsa yoki bekor qilinsa, vakolati o'zgartirilgan taraf xalq sudini yozma ravishda xabardor qilishi, xalq sudi esa boshqa tarafni xabardor qilishi shart" ligi ko'rsatilgan.

**Ukraina Fuqarolik protsessual kodeksining** 58-moddasiga ko'ra "taraf, uchinchi shaxs, shuningdek, qonuniy ravishda boshqa shaxsning manfaatlarini ko'zlab sudga murojaat qilish huquqi berilgan shaxs sud jarayonida shaxsan (o'z-o'zini vakillik qilish yo'li bilan) va (yoki) vakil orqali ishtirok etishi mumkin". Ushbu

---

<sup>5</sup> *Guarantees of representation in civil proceedings and features of the experience of foreign countries*

*Davlatjon XABIBULLAEV, Abror MAMADIYEV.*

<sup>6</sup> *Гражданское процессуальное право (Россия)*

kodeks 60-modaning to'rtinchi qismida "vakil bir vaqtning o'zida bir necha da'vogarni yoki bir necha javobgarni yoki bir necha uchinchi shaxslar manfaatini bir tomondan ifodalashi mumkin, agar ular o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi bo'lmasa".

**Armaniston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining** 56-moddasida vakilning maxsus ishonchnoma tuzishi lozim bo'lgan holatlar ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu moddaga ko'ra:

"Sudda ish yuritish uchun ishonchnoma vakilga ishonch bildiruvchining nomidan har qanday protsessual harakatni amalga oshirish huquqini beradi, bundan quyidagilar mustasno:

- 1) da'vo arizasini imzolash;
- 2) hakamlik bitimi tuzish va nizoni arbitrajga taqdim yetishga rozilik berish;
- 3) da'volardan to'liq yoki qisman voz kechish;
- 4) da'volarni to'liq yoki qisman tan olish;
- 5) da'voning asosini va pretmetini yoki ulardan birini o'zgartirish;
- 6) hisob-kitob shartnomasini tuzish;
- 7) yarashuv bitimini tuzish;
- 8) litsenziyali konsiliator ishtirokida yarashuv tartibida ishtirok yetish;
- 9) vakolatni boshqa shaxsga o'tkazish (ishonchni o'tkazish);
- 10) sud xabarnomalari va protsessual hujjatlarni olish;
- 11) sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish;
- 12) ijro varaqasini berish to'g'risida ariza berish".

Ushbu moddaning 1-qismida ko'rsatilgan harakatlarning har birini bajarish uchun ushbu vakolatlar vakilga berilgan ishonchnomada aniq nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

### **Misr.**

Ba'zi advokatlar amaldagi huquqiy tartibga e'tiroz bildirish va, ehtimol, mahbuslar huquqlarini himoya qilish uchun o'zgarishlarga hissa qo'shish uchun sudda kurash olib borishni tanladilar.

Ayblanuvchi ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni sodir etishda o'zi ishtirok etishi kerak, sud hukmi chiqarilgandan keyin qonun ularning ijrosini ta'minlaydi. Darhol ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin bo'lgan jinoyat sodir etishda ishtirok etgan ayblanuvchining advokati bo'lmagan taqdirda, sud uni himoya qilish uchun advokat tayinlashi shart.

Boshqa huquqbuzarliklar va qonunbuzarliklarda ayblanuvchi sudning shaxsan ishtirok etishini talab qilish huquqiga zarar etkazmasdan, o'z himoyasini taqdim etish uchun vakilni topshirishi mumkin.<sup>7</sup>

Qonun ayblanuvchini himoya qilish uchun **cheklangan ishonchnoma** tufayli advokatning ishtirok etishiga ruxsat beradi. Agar hozirgi ayblanuvchining advokati

---

<sup>7</sup> <https://tile.loc.gov/storage-services/service/ll/llglrd/2018298479/2018298479.pdf>

bo'lmasa, sud uni himoya qilish uchun advokat tayinlashi shart. Apellyatsiya yoki birinchi instantsiya sudlariga qabul qilingan advokatlar jinoyat ishlari bo'yicha sudga harakat qilish uchun yagona vakolatga ega. Tergov sudyasi, prokuror yoki jinoyat ishlari bo'yicha sud raisi topshirig'iga binoan advokat, agar ayblanuvchi kambag'al bo'lsa, **davlat g'aznasidan** undirilishini talab qilishi mumkin. Sud ish bo'yicha qaroriga bunday to'lovlarni kiritishi kerak.

Qonunga muvofiq chaqirilgan sudlanuvchi sudga kelmasa va advokat yubormasa, sud sirtidan hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. Sud, shuningdek, sirtidan hukm chiqarish o'rniga, ishni keyingi sud majlisiga qoldirishi va sudlanuvchiga chaqiruv to'g'risidagi bildirishnomani qayta yuborishni tayinlashi mumkin.

**Asosiy tamoyillarga muvofiq mustaqil advokatlik kasbi.** Erkinligi cheklangan har qanday shaxs sabablar to'g'risida xabardor qilinishi va ularning huquqlari haqida yozma ravishda ma'lumot berilishi kerak. Ularga qarindoshlari bilan bog'lanishlari va advokat bilan uchrashishlari mumkin. Sud, tergov va so'roq harakatlari Mirsda faqat shaxsning advokati ishtirokida o'tkazilishi mumkin. Agar shaxsda advokat bo'lmasa, unga advokat tayinlanishi va tegishli yordam ko'rsatilishi kerak.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga faqat deputat yoki tayinlangan advokat ishtirokida ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanishi mumkin.

Konstitutsiyaning 198-moddasida advokatlar assotsiatsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi asoslarga kelsak, advokatlik kasbining mustaqil kasb ekanligini nazarda tutadi. U sud tizimida odil sudlovni amalga oshirishda, qonun ustuvorligini ta'minlashda va mudofaa huquqini ta'minlashda ishtirok etadi. Himoya huquqini amalga oshirish jarayonida

-sudlar oldida barcha advokatlar qonun bilan ularga berilgan kafolatlar va himoyalardan foydalanadilar;

-tergov va dalil organlariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Bularning barchasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Mirsda advokatlar o'z himoyasidagi shaxslar bilan erkin uchrashish, ishga aloqador hujjatlar bilan tanishishda ko'plab muammolarga duch kelishadi, buning asosiy sababi ushbu holat normalar bilan tartibga solinmaganidir. Shuningdek, qamoqxona xodimlari tomonidan advokatlar bilan uchrashuvlarning maxfiylikining kafolatlari ham mavjud emas.

Misr Konstitutsiyasining 54-moddasida Advokat va yuridik yordam olish huquqi ham kafolatlangan: "**Agar ayblanuvchining ishonchnomasi yoki advokati bo'lmasa, ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar bo'yicha ayblanuvchini sudga taqdim etishga yo'l qo'yilmaydi.**"<sup>8</sup> Bu huquq nafaqat sud bosqichiga, balki sudgacha bo'lgan

---

<sup>8</sup> [https://www.arabruloflaw.org/files/pdf/judiciary/english/p2/egypt\\_finalreportp2s4\\_en.pdf](https://www.arabruloflaw.org/files/pdf/judiciary/english/p2/egypt_finalreportp2s4_en.pdf)

bosqichga ham tegishli. 54-moddaning ikkinchi bandida aytilishicha, “**shaxsning advokati ishtirok etmaguncha tergovni boshlash mumkin emas. Advokati bo‘lmagan shaxslarga esa advokat tayinlanadi**”. Konstitutsiyada alohida ehtiyojli shaxslar ham qamrab olingan bo‘lib, “**nogironlarga qonunda belgilangan tartibda zarur yordam ko‘rsatilishi**” belgilab qo‘yilgan.

1950-yildagi Jinoyat-protsessual kodeksi va unga kiritilgan o‘zgartishlar himoya va yuridik yordam ko‘rsatish huquqini kafolatlaydi. 124-moddada ayblanuvchini so‘roq qilish yoki advokat yo‘qligida so‘roq o‘tkazish taqiqlanadi, bundan ayblanuvchi jinoyat sodir etganlikda qo‘lga olingan yoki dalillar yo‘qolishidan qo‘rqqan hollar bundan mustasno. Unda yana aytilishicha, agar ayblanuvchining advokati bo‘lmasa yoki uni olishga imkoni bo‘lmasa, prokuror uni tayinlashi shart.

Oila huquqi 2000 yildagi 1-sonli “Shaxsiy maqom ishlari bo‘yicha sud jarayonlarini tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonun<sup>9</sup> va 2004-yildagi “Oilaviy sudlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 10-sonli qonun<sup>10</sup>ni qabul qilishdan maqsad sudlanuvchilar oilaviy nizolarga duchor bo‘lganlar (asosan ayollar va bolalar) uchun sud tizimiga kirishni osonlashtirish edi.) Qonunlar sud jarayonlarini soddalashtiradigan va oilaviy sud tizimini yanada qulayroq qilish imkonini beruvchi qoidalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, oilaviy sudda da‘vo qo‘zg‘atish layoqatiga ega bo‘lgan yosh - o‘n besh yosh. Bu bolalarga qonuniy huquqlarini himoya qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, da‘vogarlarga oilaviy sudlar oldida chiqishga ruxsat beriladi. Boshqa fuqarolik da‘volaridan farqli o‘laroq, huquqiy shikoyatlar advokat imzosisiz oilaviy sudlarga berilishi mumkin. Demak, sudlanuvchilar advokat yollashlari shart emas. Shunga qaramay, sud, agar kerak bo‘lsa, **da‘vogarning qonuniy vakilini bepul tayinlashi** mumkin.

2000 yil 1-sonli Qonunga muvofiq yuridik yordam ko‘rsatishning yana bir misoli shundaki, aliment va qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi barcha da‘volar sud yig‘imlari va yig‘imlaridan ozod qilingan.

Xuddi shunday, kamida ikkita sezgi nogironligi (masalan, ko‘rlik, soqovlik yoki karlik) yoki jiddiy jismoniy nogironlikdan aziyat chekadigan shaxslar sud tomonidan tayinlangan bepul yuridik yordamchidan foydalanish huquqiga ega. **1983 yildagi 17-sonli Qonunning 93–94-moddalari (Advokatlik to‘g‘risidagi qonun)**<sup>11</sup> Misr Advokatlar assotsiatsiyasi bo‘limlaridan tergov, sudgacha bo‘lgan tergov yoki sud jarayonida yordam ko‘rsatish imkoniyati bo‘lmagan shaxslarga bepul yuridik yordam ko‘rsatish va yuridik vakillik ko‘rsatish uchun **yuridik yordam qo‘mitalari** tuzishni talab qiladi. Qonunda aytilishicha, Kengash fuqarolarni himoya qilish uchun advokatlarni hech qanday to‘lovsiz birlashtirishi kerak.

---

<sup>9</sup> [https://horizon.documentation.ird.fr/exl-doc/pleins\\_textes/divers17-07/010048687.pdf](https://horizon.documentation.ird.fr/exl-doc/pleins_textes/divers17-07/010048687.pdf)

<sup>10</sup> [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=2664787](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2664787)

<sup>11</sup> <http://www.iedja.org/wp-content/uploads/2018/02/egypt-access-to-justice-system-1my.pdf>



64-moddaga ko'ra, "xarajatlarni ko'tarishga qodir bo'lmagan"larga yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlar to'lovchi mijozga nisbatan ehtiyotkorlik bilan xizmat qilishlarini talab qiladi. Bundan tashqari, advokat ishni boshqa advokatga topshirishdan oldin, sud ruxsatisiz, nochor mijozning vakili bo'lishdan bosh tortishga haqli emasligi ko'rsatilgan.

Bepul yuridik yordam olish huquqini himoya qilishda sudlarning roli yaqinda bo'lib o'tgan Konstitutsiyaning nochor shaxslarga yuridik yordam ko'rsatishni nazarda tutuvchi 98-moddasini qo'llash bo'yicha ishda namoyon bo'ladi. **Ma'muriy sudi**, da'vogar tayinlangan advokat birinchi instantsiya sudidan da'vo bo'yicha yig'implardan ozod qilishni yoki bepul sudni talab qilmagan taqdirda, sudda o'z ishini himoya qilish uchun ko'rsatilgan advokat haqi va sud xarajatlari uchun kompensatsiya olishga haqli emas.

Jinoyat-protsessual kodeksining 124-moddasi, agar advokat hozir bo'lmasa, ayblanuvchiga sudgacha bo'lgan bosqichda advokat tayinlash majburiyatini yuklaydi. Kassatsiya sudi (mamlakatning eng yuqori sudi) prokuror ayblanuvchining jinoyat sodir etganlikda ushlanganligini yoki "mavjud dalillarni yo'qotishdan qo'rqish" mavjudligini aniqlash huquqiga ega, va xuddi bining qonunchilik singari, ayblanuvchining so'roq jarayonida advokat ishtirok etish huquqidan voz kechishni qo'llab-quvvatlaydi va shunga ko'ra advokat yo'qligida so'roq o'tkazishi mumkin bo'ladi. Biroq, bu qaror birinchi instantsiya sudi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Aksincha, sud muhokamasi bosqichida kassatsiya sudi sudlanuvchining protsessual va yuzaki emas, balki moddiy va samarali himoya qilish huquqini doimiy ravishda himoya qiladi. Og'ir jinoyatda ayblanayotgan sudlanuvchi himoyalangan yoki sud tomonidan tayinlangan bo'lishidan qat'i nazar, advokat tomonidan himoyalaniishi kerak, deb hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, maslahat va yuridik yordam olish huquqi qonun bilan kafolatlangan va himoyalangan, Konstitutsiyada mustahkamlangan hamda "Advokatura to'g'risida"gi qonun bilan tasdiqlangan. Biroq, bu qoidalar amalda ishlamaydi: "Misrdagi advokatlarning aksariyat qismi uchun **pro bono** (*Mijozlarga bepul xizmat ko'rsatuvchi huquqshunoslar, odatda, pro-bono advokatlar deb ataladi. So'nggi yillarda Amerikada bepul huquqiy maslahat beruvchi firmalar soni oshib bormoqda*) ish tushunchasi hanuzgacha begona." Bundan tashqari, advokatlar, umuman olganda, hatto sudlar tomonidan tayinlanganlar ham yaxshi maosh olishmaydi.<sup>12</sup>

### **Qatar.**

2006 yil 23-son Qonuni "Advokatura to'g'risida" gi qonun Advokatlik ishi faqat advokatlar tomonidan amalga oshirilishi mumkinligini belgilab bergan. Quyidagi harakatlar kasbiy xatti-harakatlar doirasi hisoblanadi:

---

<sup>12</sup> <https://stuff.coffeecode.net/www.loc.gov/law/help/access-to-justice/egypt.php>

-Manfaatdor shaxslarning sudlar, prokuratura, hakamlik sudlari, ma'muriy sudlar, jinoiy va ma'muriy tergov organlari oldida vakillik qilish,

- ular tomonidan qo'zg'atilgan yoki ularga qarshi qo'zg'atilgan da'volar bo'yicha ularni himoya qilish,

- shuningdek ular bilan bog'liq munozaralar va sud ishlarini yuritish.

-Yuridik fikr va maslahat berish.

-Shartnomalarni tuzish va ularni ro'yxatdan o'tkazish yoki notarial tasdiqlash uchun zarur tartib-qoidalarni o'tkazish.<sup>13</sup>

Manfaatdor jismoniy shaxslar ushbu Qonunning 3-moddasida nazarda tutilgan shaxslar huzurida o'z nomidan himoya qilish maqsadida ularning turmush o'rtog'i, qarindoshlari va qaynona-qaynotalariga to'rtinchi darajagacha ruxsat berishi mumkin. **Ushbu qoida kassatsiya sudida qo'llanilmaydi.** Apellyatsiya yoki kassatsiya sudiga berilgan apellyatsiya arizasiga uning huzuriga kelishga ruxsat berilgan advokatning ishonchnomasi ilova qilinadi. (8-modda)

O'z mamlakatlarida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan qatarlik bo'lmagan advokatlar, ro'yxatdan o'tmagan bo'lsalar ham, alohida hollarda Qatar sudlariga kelish uchun ruxsat so'rashlari mumkin.<sup>14</sup>

Qatar advokatlik firmalari kassatsiya sudi oldida qatarlik bo'lmagan advokatlarni yollash uchun ruxsat so'rashi mumkin.

Qo'mita tavsiyasiga ko'ra, amaldagi advokat qatarlik bo'lmagan advokatga qo'shilishi sharti bilan bunday ruxsatnoma berish vakolatiga mavjud. Bunday ariza berish va uni shu maqsadda reestrغا kiritish tartibi vazirning qarori bilan belgilanadi.

Har qanday advokat, agent yoki shifokor yoki o'z kasbi orqali yoki o'z maqomida biror fakt yoki ma'lumotdan xabardor bo'lgan har qanday boshqa shaxsga, hatto xizmat muddati tugaganidan yoki layoqatini yo'qotganidan keyin ham ushbu faktlar yoki ma'lumotlarni oshkor qilishga ruxsat berilmaydi. Shu bilan birga, yuqorida ko'rsatilgan shaxslar ushbu ma'lumotlar yoki faktlar bo'yicha saqlovchining iltimosiga binoan, ularga nisbatan qo'llaniladigan qonunlar qoidalarni buzmaslik sharti bilan ko'rsatma berishi kerak.

Agar so'rovchi da'vo xarajatlariga qo'shimcha ravishda advokatlik boji va boshqa zarur to'lovlarni to'lash uchun sud tomonidan hisoblangan summani depozitga qo'ygan bo'lsa, sudya zarurat tug'ilganda ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risida qaror chiqaradi. Bunday holda, da'vo arizasiga bunday da'volarni tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlar yoki ushbu da'vo uchun asos bo'lgan mulkchilik yoki egalik faktlari to'g'risidagi batafsil bayonnoma kiritilishi kerak.<sup>15</sup>

**Ozarbayjon Respublikasida** oliy ma'lumotga va yurist ixtisosligi bo'yicha kamida 3 yillik ish stajiga ega bo'lgan yoki ilmiy muassasalarda va o'quv yurtlarida

<sup>13</sup> <https://www.almeezan.qa/LawView.aspx?opt&LawID=2563&language=en>

<sup>14</sup> Fuqarolik va tijorat protesutasi huquqi - 1990 yil 13-son Qonuni

<sup>15</sup> <https://www.almeezan.qa/LawArticles.aspx?LawArticleID=33600&LawID=2492&language=en>

huquq sohasida ishlayotgan, malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan shaxs advokat bo'lishi mumkin. Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun Advokatlar hay'ati a'zosi bo'lish va advokat qasamyodini qabul qilish shart.

Ozərbayjon Respublikasının "Advokatlar va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni 1999-yil 28-dekabrda qabul gilingan.<sup>16</sup>

Mazkur qonunning 3-moddasiga ko'ra, advokatlik faoliyatining asosiy vazifasi jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinliklari va qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish, ularga yuqori sifatli yuridik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Advokatlikka nomzodlarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash uchun malaka komissiyasi tuziladi. Malaka komissiyasi tarkibiga 9 kishi, shu jumladan, 3 advokat, 3 sudya va 3 yurist-olim kiradi.

Malaka komissiyasi a'ziligiga advokatlardan Advokatlar hay'ati rayosati, sudyalardan Ozərbayjon Respublikasi Oliy sudi tomonidan tayinlanadi. Malaka komissiyasining qolgan 3 a'zosi yurist olimlardan tegishli ijro hokimiyati organi tomonidan tayinlanadi.

Advokatlik faoliyati tashkiliy-hududiy shakli bo'yicha yakka tartibda yoki yuridik maslahatxona, advokatlik byurosi, advokatlik firmasi va boshqa tashkiliy tuzilmalar tarkibida amalga oshirilishi mumkin. Advokatlar hay'atlari nodavlat, mustaqil, o'zini o'zi boshqaruvchi va barcha advokatlarni birlashtiruvchi tashkilot-yuridik shaxsdir. Advokatlar hay'ati a'zosi bo'lmagan shaxslar advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Ozərbayjon davlatining ham maxsus **713-sonli (Vəkillər və vəkillik fəaliyyəti haqqında AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASININ QANUNU)** Qonuni Ozərbayjon Respublikasi hududida har bir shaxsning o'zi tanlagan advokatga murojaat qilish va sudda ish yuritish, dastlabki tergov va sud ishlarini yuritishda qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun advokat yordamidan foydalanish huquqini ta'minlaydi. 8-moddasiga muvofiq esa,<sup>17</sup>

-Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan,

-huquqshunos sifatida kamida uch yillik ish stajiga ega yoki ilmiy-pedagogik ta'lim muassasalarida huquq sohasida kamida uch yil ishlagan shaxs quyidagilardan iborat malaka imtihonini topshirishi uchun, Ixtisoslash komissiyasida kasbga yaroqliligini aniqlash maqsadida yozma test sinovi va og'zaki suhbat tegishli ijro etuvchi hokimiyat organining ta'lim-fan muassasasida majburiy o'quv kursidan muvaffaqiyatli o'tgan va muvaffaqiyatli tamomlagan shaxs, belgilangan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda advokat bo'lishi mumkin. 4-moddaga asosan esa, Jinoyat ishlari bo'yicha

-gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini himoya qilish,

---

<sup>16</sup> "Vəkillər və vəkillik fəaliyyəti haqqında" Azərbaycan Respublikasının 28 dekabr 1999-cu il tarixli Qanunu.

<sup>17</sup> <https://e-qanun.az/framework/257>

-ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha sudda jismoniy shaxsni himoya qilish,

-fuqarolik ishlari va ma'muriy nizolar bilan bog'liq ishlar bo'yicha Ozarbayjon Respublikasi Oliy sudida shaxsga vakillik qilish,

-shuningdek, Ozarbayjon Respublikasining arizachining huquq va erkinliklarini buzganlik uchun Konstitutsiyaviy sudda vakillik qilish mutlaq vakillik sohasidir.

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilib aytishimiz mumkinki, fuqarolik protsessual qonunchiligimizni takomillashtirish, undagi vakillik institutiga oid vakolatlarni kengaytirish, vakillarni fuqarolik sud ishlariga jalb qilish borasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladigan vaqt keldi. Qonunchiligimizni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surishimiz mumkin.

### ***Adabiyotlar tahlili va metod.***

***Birinchi***dan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasiga uchinchi qism sifatida "Yashash joyi (joylashgan manzili) noma'lum bo'lganligi sabali javobgarning sud protsessida qatnashishining imkoni bo'lmagan yoki uning vakili bo'lmagan taqdirda uning manfaatlarini sudda himoya qilish maqsadida sudya tomonidan advokat tayinlanadi. Sud tomonidan javobgarning vakili etib tayinlangan advokat ushbu ish bo'yicha sudning protsessual hujjatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega" talqinida normani kiritish kerak.

***M.H.Rustamboyev va U.Tuxtashayeva***larning ta'kidlashicha, "advokat jinoyat protsessida himoyachi yoki vakil sifatida ishtirok etish jarayonida Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan qator huquqlardan foydalanadi. Advokatning jinoyat protsessida ishtiroki fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning jiddiy kafolatidir va bu ish yuzasidan haqiqatni aniqlashga ko'maklashadi hamda tortishuvchilik va fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsiplarining ajralmas qismidir".

### **Takliflar va Xulosa.**

***Birinchi***dan, xorij mamlakatlari tajribasida kuzatilganidek, sud jarayonlarida advokat, ya'ni himoyachining ham maxsus kiyimi bo'lishi lozim. Chunki, qonunchiligimizda ham davlat ayblovchisining ham, sudyaning ham maxsus formasi mavjudligini ko'rganmiz. Bu ham albatta, advokatning mavqeini sud protsessining boshqa subyektlari bilan bir qatarga qo'yish uchun yana bir yechim bo'lishi mumkin. Undan tashqari, advokatning maxsus kiyimda ishtirok etishi sud qatnashayotganlar (guvoh, ekspert, mutxassis va hokazo)ning ham unga nisbatan "Bu kim ekan?, Sudlanuvchining tanishimikan?" singari savollariga o'rin qoldirmagan bo'lar edi.

***Ikkinchi***dan, hozirgi kunda advokat bo'lish uchun qo'yilgan talablarning yengillashtirilayotgani bir tomondan quvontirsa, ikkinchi tomondan bizni tashvishga solmoqda. Negaki, 2 yillik stajning olib tashlanganligi endigina bakalavriatni bitirgan talabalar uchun osongina advokat bo'lish imkoniyatini bersa, ular yetarli malakaga ega bo'lmay turib ishlarda qatnashib, ayrim advokatlik kasb etikasiga zid

bo'lgan xatti-harakatlarni sodir etishlariga yo'l qo'yib bermoqda. Albatta, advokatlar soni, statistikasi oshgani yaxshi, lekin sonni oshirish uchun sifatni unutib qo'yib, yangiliklarni joriy etilayotgani biroz e'tiborsizlikni ko'rsatmoqda. Rivojlangan davlatlar, masalan Germaniya kabi davlatlarda advokat bo'lish uchun qo'yilgan talablarning hattoki 50 % I ham bizda bor deya olmaymiz. Ularda talablarning yuqoriligi, sifatli va malakali advokat-kadrlar bazasini shakllantiribgina qolmay, ularning obro'-mavqeiga ham bevosita bog'liq natijalarni beradi. Demak, advokatlarning sonini oshirish bilan emas, ularning malakasini, bilimni yuksaltirish bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, advokat bo'lishni xohlovchilar uchun qo'yilgan talablarni "qattiq va shavqatsiz"roq qilish kerak deb hisoblaymiz.

**Uchinchi**dan, yuqoridagi fikrimizning mantiqiy davomi sifatida aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda birorta ham Advokatura sohasi bo'yicha ixtisoslashgan ta'lim muassasasi mavjud emas ekan, bulardan yuridik universitetlarning ayrim magistratura yo'nalishlari mustasno. Xo'sh, shunday ekan, biz qanday qilib, havas qilarli darajadagi advokatlarni yetishtiryapmiz? Bu kabi holatga yechim sifatida O'zbekistonda yagona bo'ladigan maxsus ixtisoslashtirilgan Advokatura litsey-kolleji va uning davomi sifatida oliy ta'lim muassasasini tashkil etish zarur. Shunda, advokat bo'lishni istagan yoshlar bimalol mukammal bilim olishlari, faqatgina shu yo'nalishda tahsilni davom ettirishlari mumkin bo'ladi.

***(Ushbu takliflar faqatgina shaxsiy fikrlar asosida, beg'araz yozildi.)***

**Xulosa qilib aytganda**, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har qanday islohotlarning, xususan himoyalani huquqini ta'minlash institutini yanada isloh etish yuzasidan olib borilayotgan islohotlarning markaziy bo'g'inini inson, uning huquq va manfaatlarini tashkil etayotganini ta'kidlash o'rinlidir. Zero, islohot – islohot uchun emas, islohot, avvalo, inson, uning manfaatlarini uchun xizmat qilmog'i lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati : darslik / M H Rustambayev, U.A Tuxiasheva; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent davlat yuridik instituti. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari miilij jamiyati nashriyoti, 2012 — 384 bet.
4. Advokatura. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Egamberdiev A.U., Ahmedov R.T., Mirzaev Sh.M., Fazilov F., Nikonov I., Sayfieva G. T.: TDYuU nashriyoti, 2016. - 250 bet.
5. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019. –195 bet

6. <https://www.lex.uz>
7. <https://distant.tsul.uz>
8. <http://www.eurasian-advocacy.ru/gruziya/608-zakon-gruzii-ob-advokatskoj-deyatelnosti>
9. Н.С. Чувашовой «Функция адвоката-защитника в апелляционной и кассационной судебных инстанциях» (2003 г.) 22.
10. Бойков А.Д. «Защита прав потерпевшего в уголовном процессе». М., 1993. С. 44
11. Баев М.О. Баев О.Я. Участие защитника в производстве следственных действий (тактический аспект) / Баев М.О. Баев О.Я. // Уголовно-правовые проблемы борьбы с преступностью: сб. науч. тр. - Калининград: Изд-во Калининград, гос. ун-та., 1995. С. 58 - 72.
12. В.И. Новосельцев, В.М. Мельников Новосельцев В.И. Конфликтология: учеб. пособие / Воронеж: Рос. академия правосудия, 2004.- 290с.
13. Базарова Д.Б. Адвокат как участник в досудебных стадиях уголовного процесса. Дисс. ... канд. юрид. наук. –Т., ТГЮИ. 2011. -С. 20.
14. Тўлаганова Г.З. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва тортишув принципи. Ўқув қўлланма. – Т. ТДЮИ, 2009., -Б. 6-7, 60, 78.
15. Inog'omjonova Z.F., To'laganova G. Z. Jinoyat protsessi ishtirokchilari. O'quv qo'llanma. -Т.: TDYUU. 2006.-В. 45. (Inogomjonova Z.F., Tulaganova G. Z. Participants in criminal proceedings Abror Jamolovich. SOME ISSUES OF IMPROVING THE GROUNDS AND PROCEDURE FOR THE PARTICIPATION OF A LAWYER IN CIVIL PROCEEDINGS. Journal of Law Research. 2022, Special issue 1, pp.51-59;
16. Guarantees of representation in civil proceedings and features of the experience of foreign countries. Davlatjon XABIBULLAEV, Abror MAMADIYEV;
17. Egamberdi yev Dilshod. PARTICIPATION OF ATTORNEY AS A REPRESENTATIVE IN ADMINISTRATIVE COURTS. Journal of Law Research. 2019, 6 vol., issue 1, pp. 35-40;
18. [18.https://inlibrary.uz/index.php/uzbek\\_law\\_review/article/view/1880/1895](https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/1880/1895)
19. <https://lex.uz/>
20. <https://www.norma.uz/>
21. <https://scholar.google.com/>
22. <https://stat.uz/uz/>